

## **HADISLARNING BOLA TARBIYASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI**

*Shokhsanam Saydulloyeva Mashraffjonovna*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Maktabgacha vaboshlang'ich ta'lim  
fakulteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrası assistenti  
shoxsanamsaydulloyeva94gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hadislarning bola tarbiyasidagi o'rni va uning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Farzand tarbiyasi va uning kelajagi ravnaqida hadislarda foydalanish yaxshi samara beradi. Hayotning har bir sohasida hadislarga quloq tutgan inson hayot yo'lida hech qachon qoqilmaydi.

**Kalit so'zlar:** Hadislar, bolalar tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ruhiy rivojlanish, Ijtimoiy munosabatlar, Diniy ta'lim

Har bir insonga uning tug'ilganidan boshlab to umrining oxiriga qadar 3 ta omil ta'sir etib turadi. Bular:

1. Irsiyat
2. Atrof-muhit
3. Ta'lim-tarbiya

Insonlarga qobiliyat, xarakterlar irsiyat orqali ota-bobolaridan o'tadi. Shu jihatlarni o'zida singdirgan holda voyaga yetadi. Atrof-muhit, jamiyat bilan o'zaro aloqaga kirishganda esa uning fikrlashi, dunyoqarashi o'zgara boradi.

Tarbiya oiladan boshlanadi va uzluksiz tarzda davom etadi. Bolalar oila bilan hamohang tarzda maktabgacha ta'lim tashkilotida, maktabda va keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida o'qishi davomida tarbiya ham olishadi. Ular bog'cha davridan boshlab kishilar bilan munosabatga kirisha boshlaydi. Maktab davridagi darslar asosida bolalarning ta'limi va tarbiyasi shakllanadi. Hozirgi kunda erkin, o'z fikriga ega va o'sha fikrini asoslab bera oladigan o'quvchi yoshlarni yetishtirish masalasi malakali ustoz-murabbiylar zimmasiga yuklatilgandir. O'quvchilar kelajakni oldindan ko'ra olishi,

kelajakda kim bo'lib yetishishlarini anglay olishlari zarur. Bu jarayonda boshlang'ich davr asosiy vazifani bajaradi va shu davrda o'quvchi shaxsi shakllanadi. Kichik yoshidan boshlab ularning hayotdagi ezgu maqsadini to'g'ri qo'ya olish va o'z maqsadi yo'lida hech narsani pisand qilmay, faqat olg'a intilish kabi g'oyalarni hayotiy shioriga aylantirishi zarur. Bunda tarbiyaviy va ta'limiy bilimlarni uyg'unlashtirishi muhim. Ularga tarbiyaviy jihatdan bilim berishda hadislarning o'rni beqiyosdir. Hadislardan o'quvchilarning yoshiga mos keladiganini topib, ularga tushunarli tarzda ularning hayoti bilan bog'lagan holda tushuntirib berish hamda unga amal qilish ularning o'sha hadislarga amal qilish darajasini oshiradi. Biz har bir qadamimizda hadisga amal qilib yashashimiz kerak, chunki hadislar orqali o'zligimizni anglab boramiz. O'zligini anglagan inson yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikning farqiga bora oladi. Kishilar hadislar bilan qanchalik yaqindan tanishsa, shunchalik o'zini va o'zligini, hayotdagi maqsadini anglab yetadi. Ayniqsa, hadislarini o'quvchi o'quvchilarning hayotning gultoji bo'lgan Xulqi toblanadi. Rasululloh sollalloh-u alayhi vasallam: "Men yaxshi xulqlarni kamolotga yetkazish uchun payg'ambar bo'lib keldim" deganlar. Hadislar tarbiyaning o'q tomiridir. Unga tayanilgan jamiyatda tafakkur hamda adolat quyoshi ilmga tashna insonlarga, maxluqotlarga, borliqqa nur sochib turadi, shu bilan birga Haqiqat va tarbiya eshigini ochib turadi.

Hadislarda farzandlarga nisbatan ota-onani rozi qilish, ularga oq bo'lishdan saqlanish, ilm olish, yaxshilik qilish kabi bir qator hikmatlar mavjud bo'lib, unga quyidagi misolni keltirish mumkin:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam dedilar:

"Robbning roziligi otaning roziligida va Allohning g'azabi otaning g'azabidadir".

Bu hadisni quyidagicha sharhlash mumkin: Ota-ona nomiga sazovor bo'lgan shaxs borki, dinimizda ular ehtiroimga loyiq zotlar sifatida qadrlanadi. Yuqoridagi hadisi sharif matnida kelgan "Robbning roziligi" otaning roziligi va "Allohning g'azabi" otaning g'azabida ekanining o'zi ham, Islomda ularning qadri qanchalar yuksak ekaniga dalolat qilib turibdi. "Ota" deyilganda o'zining asl ota va bobosi kiradi. Ota-onani rozi qilishlik

bilan Allohning roziligiga erishiladi. Ularni g'azablantirish bilan Allohning g'azabiga duchor bo'linadi. Agar bu amr va qaytariqlar farzandning shaxsiga zulm bo'lsa ham, Alloh taoloning shariatiga xilof bo'lmasa, farzand savob umidida ota-onaning bu ishiga sabr qiladi.

Ibn Abbos raziyallohu anhudan qilingan rivoyatda shunday deyiladi: "Bir musulmon insonning musulmon ota-onasi bo'lsa, ularga yaxshilik qilib, uning savobini kutgan holda tong ottirgan bo'lsa, Alloh taolo unga jannatning ikki eshigini ochadi. Agar faqat biri bo'lsa bir eshikni ochadi. Agar farzand ota-onadan birining g'azabini chiqargan bo'lsa, undan o'sha shaxs rozi bo'lmagunicha, Alloh rozi bo'lmaydi", dedilar. "Ota-ona unga zulm qilgan bo'lsa hammi?" – deyildi. "Zulm qilgan bo'lsalar ham" – dedilar.

Bunday hadislar bilan bolani tanishtirishdan oldin, ota-onaning ham shunga amal qilishi lozim. Gapirilgan gapdan ko'ra qilingan amal bolaga tezroq yetib boradi va shunga javob qaytaradi. Shunday ekan, hadislardan foydalanishda e'tiborli bo'lish, farzandlarni hadislariga amal qilishga o'rgatish muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Abdullah Muhammad ibn Isma'il al-Bukhari, "AL-JAMI 'AS-SAHIH" (Vol. 1), General Editor of the Encyclopedia, T.:1991.
2. Abu Lays Samarkandiy. Bostonul orifiyn. -T .: "Movaunnahr", 2006
3. Shodiyev. F.T., Saydulloyeva Sh.M., "Hadiths and their ways of usage in the education of pupils", maqola, 2023
4. Islam. Encyclopedia. -T .: "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House, 2003.
5. Saydulloyeva Sh.M., "Methodology of innovative teaching of hadiths and summary works in primary classes (parable, quick telling, riddle)", ISSN (Online): 2949-7752 JIF: 7.685 "Neo science peer reviewed journal" SJIF (2023): 5.682 Samarqand-2021. 32-34 b